



ILLUMINATION OF SOCIO-PEDAGOGICAL IDEAS IN HADITHS

Bovanova Umida Abduvahabovna

teacher of Tashkent University of Applied Sciences

(umidabovanova@gmail.com)

Malika Akbarova

Tashkent applied sciences (albarovamalika@gmail.com)

tel:+998944028797

Annotation: The article highlights the ways of education in the socio-pedagogical process according to the hadiths and gives the necessary theoretical recommendations.

Key words: Qur'an, hadith, prophet, religion, knowledge, child, parents, people, student, upbringing, education, family, knowledge, human, social, institute, teacher.

Hadislarda ijtimoiy pedogogik fikrlarning yoritilish

Освещение социально-педагогических идей в хадисах

Bovanova Umida Abduvahabovna -

Toshkent amaliy fanlar universiteti

o`qituvchisi (umidabovanova@gmail.com)

Akbarova Malika - Toshkent amaliy fanlar

universiteti 2-kurs talabasi

(albarovamalika@gmail.com)

tel:+998944028797



Annotatsiya: Maqolada hadislarda ijtimoiy pedagogik jarayonda tarbiyaning yo‘llari yoritilgan va kerakli nazariy tavsiyalar berilgan.

Аннотация: В статье освещаются пути воспитания в социально-педагогическом процессе по хадисам и даются необходимые теоретические рекомендации.

Kalit so‘zi: Qur‘on, hadis, payg‘ambar, din, ilm, farzand, ota-ona, xalq, o‘quvchi, tarbiya, ta‘lim, oyila, bilim, inson, ijtimoiy, institut, O‘qituvchi.

Ключевые слова: Коран, хадис, пророк, религия, знание, ребенок, родители, человек, ученик, воспитание, образование, семья, знание, человек, общество, институт, учитель.

Kirish qismi: Yoshlarni taqribiyalash va kelajak demakdur, demakki bu mintalitetimiz va xlaq pedagogikasi va diniy tarbiyamiz bilan uzviy bog‘liqdur. Bu borada yurtimizda yoshlarni to‘g‘ri va yetuk tarbiyalash borasida, bir qancha islohotlar olib borilmoqda shu jumladan bularga O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 29.04.1997 yildagi 217-sonli Imom Al-buxoriy tavalludining hijriy-qamariy taqvim bo‘yicha 1225 yilligini nishonlash to‘g‘risida qarori misol qilishimiz mumkin. Bu qarorning mazmun mohiyati shundan iboratki, hadis ilmini e‘zozlash orqali yoshlarimizni tarbiyasiga bog‘lash natijasida, bolalarga yaxshi ta‘lim tarbiya berib yetik komil farzand qilib yetkazishdir.

Asosiy qism: Diniy bilimlarda asosiy e‘tibor umuminsoniy qadryatlarga yo‘naltirilgan. Diniy rivoyatlarda, muqaddas kitoblarda, oyatlar axloqiy o‘g‘itlar, insonlararo munosabatlar. Qavm qarindoshlarga, bolalarga gmxorlik haqida ko‘p gapirilgan.

Qur‘on inson bilimlarini ikkiga ajratadi: diniy va dunyoviy. Diniy bilimlar dunyo asoslarini, dunyo yaratilishini bilishga qaratilgan bo‘lib, bilimning bu turi -



inson yetishishi mumkin bo‘lgan eng oddiy cho‘qqisidir. Qur‘onda inson ega bo‘lishi mumkin bo‘lgan dunyoviy bilim haqidagi oyatlarni uchramizki, bunda dunyoviy bilimlarga inson tanasining uch a‘zosi- ko‘z, quloq va yurak orqali erishish mumkinligi ta‘kidlanadi. Bilimning holatlaridan tashqari, Qur‘on bilim rivojlanishining dialektik, dinamik jarayonlarini va inson tomonidan o‘zlashtirilishini ham qayd etadi. Bunning hammasi bilim olishga intilish hadislarida ham o‘z ifodasini topgan.

Hadis - islom dinida Qur‘ondan keyin turadigan ikkinchi muqaddas manba bo‘lib, Muhammad alayhissalomning hayoti va faoliyati, uning diniy va axloqiy ko‘rsatmalarini o‘z ichiga oladi. Movoraunnahrda VII - IX asrlarda islom dinining keng tarqalishi barcha sohalar, fan, madaniyat, falsafa, ijtimoiy hayot rivojiga o‘z ta‘sirini ko‘rsatdi. Bu davr tarixi, madaniyati, ilmu - fani, ta‘lim-tarbiya jarayoni o‘ziga xos tarzda bo‘lib, turli xil silsilalari, urushlar, nizolar oqibatida ham o‘z tarqqiyot yo‘lida to‘xtamadi. Islom madaniyati shakllanishining ichki va tashqi manbalari, tamoyillari, ahkomlari, munosabatlari asta-sekinlik bilan rivojlana bordi. Hadislar unitilib ketmasligi uchun Muhaddislar VIII asrning ikkinchi [yarmidan boshlab](#) hadislarini yoza boshlashgan VIII-XI asrlga kelib to‘rt yuzdan ortiq muhaddis hadis ilmi bilan shug‘ullangan. Mazkur bilimlarni o‘rganishning o‘ziga xos yo‘nalishi bo‘lib, «hadis ilmi» nomi bilan yuritilgan. Keyingi yillarda Muhammad Alayhis-salomning hayoti, faoliyati hamda uning diniy-ahloqiy ko‘rsatmalarini o‘z ichiga olgan hadislar, Imom Ismoil al-Buxoriyning “Al-jome’ as-sahih” («Ishonarli to‘plam»), “Al-adab al-mufrad” («Adab durdonalari»), Imom Iso Muhammad ibn Iso at-Termiziyning “Ash-SHamoil an-nabaviya” asarlari nashr etildi. “Hadis” yoki “Sunna” so‘zlari bir ma‘noni anglatib, Rasulullohning hayoti va faoliyati hamda diniy va axloqiy ko‘rsatmalari haqidagi rivoyatlardan iborat.

Hadislar ikki turga bo‘lib o‘rganiladi.



1. As-sahih deb Payg‘ambarimiz Muhammad s.a aytgan hadislariga aytiladi.
2. As-abaiya esa ayrim sabablarga ko‘ra o‘zgartirish kiritilgan hadislarga aytiladi.

Ya‘ni hadislarda payg‘ambar Muhammad s.a. aytib o‘tan maslahatlari bayon qilingan. Insonlar qanday yashashi to‘g‘ri va qanday yashashi noto‘g‘ri ekanligi haqida ko‘rsatmalar berilgan. Bundan tashqari hadislarda islom dinining qonun qoidalari bilan birgalikda insonlarga xos bo‘lgan xulq atvor va fazilatlar haqida ham bayon qilingan.. Ya‘ni, hadislarda o‘zaro do‘stona "Science and Education" Scientific Journal / ISSN 2181-0842 February 2022 / Volume 3 Issue 2 www.openscience.uz 855 munosabatlar, qarindosh, ota-ona va farzandlarning haq-huquqlari, mehr-oqibat, halollik, poklik, adolat, insof-tavfiqli bo‘lish targ‘ib qilingan. Razolat, kibr-u havo, adovat, hasad, xiyonat, yolg‘onchilik, fitna-fasod, zulm kabi illatlarga nafrat tuyg‘ulari ifodalangan.

Islomshunos olim F.Rouzental to‘liq xajmda Imom Buxoriyning “As-Sahih asarini tahlil qilib chiqqan va ulardagi bilim bilan bog‘liq quyidagi g‘oyalarni ko‘rsatib o‘tgan.

- Bilim talab qilish jannatga yo‘l ochadi;
- Bilim faqatgina o‘qish orqali qo‘lga kiritiladi;
- Inson rahbar bo‘lishidan oldin bilimli bo‘lishi kerak;
- Ayollarni o‘qishga ruhsat berilgan;
- Ilm va olimlarning yo‘qolishi dunyoning oxiriga yetganini bildiradi;

Qur‘onda xar bir shaxsni ijtimoiylashuvi hamda xar bir insonning xayot va mexnatiga munosabati haqida g‘oyalar mavjud. Islomshunoslar islom didining inson xayoti va mexnatga nisbatan munosabati borasida izlanishlar olib borgan. Ularning ta‘kidlashlaricha, Qur‘on boyliklarni qoralamaydi, biroq u barcha boylikni emas, balki musulmonning farzlarini unitishga chorlovchi boyliklarnigina



qoralaydi. Agar boylik din nuqtai nazaridan xalol topilgan bo'lsa va zakoti berilsa uni islom qabul qilmaydi. Qur'on xarakatsizlikni hamqoralaydi. U ham dunyoviy ishlardagi faol kishilarni yoqlab chiqadi.

Shu sababli farzandlarni tarbiyalashda hadislardan nixoyatda zarur hisoblanadi. Chunki ularda payg'ambarning xayoti va faoliyatidan turli hikoyalar, ahloqiy pandlar mavjud. Hadislarning pedagogik tahlili ta'lim tarbiyani 9- asosiy yo'nalishlarini aniqlashda yo'rdam beradi.

1. "Go'zal xulq sohibi" Bunda insonlar bir biriga ishonishni o'rganadi;
2. O'z xatolarining tan olinishi xalqning buyukligidan dalolat beradi;
3. O'z fikrini bildirish - Inson kuchining ifodasidir. O'z fikrini bildirmaslik esa shariat va sog'lom fikrlashga nisbatan norozilik alomati;
4. O'z farzini tushunish va uni extiyoriy bajarish insonga yaxshi xislatlar paydo bo'lishiga olib keladi; insonning o'z vatani, do'stlari, xalqi oldida majburiyatini bajarishi - Inson tarbiyalanganining ko'rsatkichi;
5. Xayotda vaqtning qadriga yetish, insonning va jamiyatning rivojlanishining asosiy shartidir;
6. Sabr qilish baxtsizlik, yetishmovchilik, kasalliklarni yengishga yordam beruvchi xislatdir. Muvaffaqiyatga erishish uchun aqldan tashqari sabr ham talab qilinadi;
7. Insonni farishta darajasiga ko'taruvchi - bu xislatdir, undan mahrum bo'lgan kishida asl sevgi bo'lishi mumkin emas. Ichkilikbozlik, faxsh, zino - bularning hammasi irodasizlikdir. Bunday insonlar atofdagilarga, o'z xalqiga zarar keltiradi;
8. Kim o'z o'tmishini yo'qotsa - uning kelajagi ham yoqdir. Qariyalarning xikmatlarini unutgan yosh avlod iymonni ham unutadi va shunda yaxshilik ustidan g'alaba qozonadi;
9. Chuqur fikr yurutish- Insonning aqliy voyaga yetganlik alomatidir;



Sharq madaniy hayotida hamma vaqt ahloq huquqqa nisbatan ustuvor ahamiyatga ega bo‘lib kelgan. Shu sababli ham ahloqiy etuklikning davlat, jamiyat, millat birligidagi o‘rni va ahamiyati doim ortib boravergan. Bu esa insonlarning ahloqiy birligi tobora barqaror va mustahkam bo‘lishiga olib kelgan. Manfaatlar birligi, umumiyliги ham insonlar o‘rtasidagi munosabatlar ahloqiy qadriyatlarga qanchalik ko‘p tayanishiga bog‘liq. Bundan tashqari Sharq xalqlarida qadimdan farzand tarbiyasiga alohida e‘tibor qaratib kelinganligi sababli, farzand tarbiyasiga chaqaloqning tug‘ilgan paytidan emas, balki undan ham oldinroq ahamiyat berish lozimligi haqida qator rivoyatlar va ibratli hikoyalar bor, ularning barchasida insonning kamoloti va kelajak poydevori yoshlikda olingan ta‘lim-tarbiyaga bog‘likligi haqida so‘z yuritiladi. Bundan kelib chiqadiki farzandni tarbiyalashda bizga albatta hadis va rivoyatlar albatta as qotadi.

Din o‘zining ijtimoiy ta‘siri va kuchi jihatidan har qanday mafkuradan ustun turadi. Dinga ehtiyoj ma‘naviy kamolotga bo‘lgan ehtiyojning bir ko‘rinishidir. Dinsiz jamiyat ma‘naviy jihatdan zaif va qashshoq bo‘ladi. Birinchi Prezident I.A.Karimovning ta‘kidlashicha: “ Oллоhning o‘zi bizga buyurgan komil inson bo‘lish, halollik va adolat bilan hayot kechirish kabi olijanob fazilatlarning ma‘no – mazmunini nafaqat chuqur anglash, balki anashunday xususiyatlarga ega bo‘lish, ularga amal qilib yashash – odamzotning ma‘naviy boyligini belgilab beradigan asosiy mezon, desak, hech qanday xato bo‘lmaydi.”¹

O‘zbekiston fuqarolari hayotida ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlash masalasi Prezidenti I. A. Karimov asarlari va chiqishlarida ham muxim o‘rin tutmoqda. Ularga insoniylik va mexribonlik o‘zbek xalqining ajralmas xususiyati ekanligi ta‘kidlanadi. Xamda ijtimoiy xarakterdagi ko‘pgina muammolar, sog‘liqni saqlash, maktab va shifoxonalarining moddiy-texnik bazasini yaxshilash, sport majmualarini ko‘rish, ko‘p bolali oilalarga yordam berish va boshqa bir qator



masalalar muxokama qilinib kelmoqda. Ma'lumki bizning madaniyatimiz va qadiryatimizning ahloq odob qoidalari poydevori islom dini hisoblanadi va bizning ota bobolarimiz yoshlarga, ya'ni bizga tarbiya berish jarayonida Qur'on va hadislardan unumli foydalanishgan. Islom xadislarda bayon etilgan eng muhim inson huquqlari sifatida quyidagilarni kafolatlaydi:

- yashash huquqi;
- erkinlik huquqi;
- tenglik huquqi;
- adolat huquqi.

Ijtimoiy pedagogik fikrlar rivojida Qur'oni Karimdan keyingi turuvchi muqaddas manbalar Hasidir. Ularda payg'ambarning hayoti va faoliyatidan turli hikoyalar va uning ahloqiy pandlari mavjud. Shu bilan birga hadislarda islom asoslarining sharhlari: mexribonlik, muqaddas dargoh, tozalik, halol-harom tushunchalari va yaxshilik, yomonlik, ahloqiylik kabi o'g'itlar o'z ifodasini topgan.

Payg'ambarimiz Muhammad alayhissalomning **“Ota-ona o'z bolasiga go'zal odobdan afzal narsa bera olmaydi”** (*Ayyub ibn Muso roziyallohu anhudan, u kishi otasidan, u kishi bobosidan - Termiziy rivoyati*) deganlarida, *farzandni kelajakda yetuk shaxs qilib tarbiyalash o'ta muhimdir bundan tashqari ma'suliyatli jarayon ekanligini tushunishimiz mumkin.* Jadid adibimiz Abdulla Alvoniyning “Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot yo halokat, yo saodat yo falokat” deyishi – ya'ni biz uchun tarbiya juda muhim axamiyatga ega, agar inson bilimli bo'lib ammo tarbiyasi bo'lmasa shuncha olgan bilimi zoya ketadi. Xalqimizda “Bir bolaga yetti mahalla ota-ona” degan hikmatning ma'nosi ham tarbiyaning ahamiyatlilik va mas'uliyatlilik darjasi nechog'lik yuqori ekanligini bildirib turadi.

“Kimiki otasining vafotidan keyin ham yaxshilik qilishni istasa, uning yaqin birodarlari bilan aloqani uzmasin” hadisda, yaqin birodarlar bilan



aloqani uzmaslik, nafaqat yaqinlarga atrofimizdagi barchaga, ya ‘ni jamiyatga yaxshilik qilish, yahshi munosabatda bolish‘ haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, hadislarda ota-onaga bo‘lgay xurmar ehtirom haqida eslatib O‘tilgan **“Kimki ota-onasining roziligini olgan bo‘lsa, unga qanday yaxshi. Alloh Taolo uning umrini uzaytiradi”**. Darhaqiqat, bizning milliyligimizda va qadryatlarimizda ota-onaga bo‘lgan hurmat, ularga bo‘lgan alohida ehtirom ro‘rsatishiz haqida o‘rgatilib kelinadi.

Abu Dardo raziyallohu anhu Rasululloh sallallohu alayhi va sallamdan quyidagilarni eshitdim dedilar. Rasululloh sallallohu alayhi va sallam: "Kim ilm yo‘lini tutsa, Alloh uni jannat yo‘liga yo‘llab qo‘yadi. Albatta, farishtalar ilm talabidagi kishiga rozi bo‘lib, qanotlarini yozib turadilar. Darhaqiqat, olim kishi uchun yer – osmondagi mavjudotlar va hattoki suvdagi baliqlar ham istig‘for aytadilar. Albatta olimning obidga nisbatan fazilati to‘lin oyning yulduzlarga ko‘ra fazliga o‘xshaydi. Darhaqiqat, ulamolar payg‘ambarlarning merosxo‘ridir. Payg‘ambarlar dinor va dirhamlarni meros qoldirmadilar, ular faqatgina ilmni meros qoldirganlar. Kimki uni olsa, to‘liq nasiba olibdi" – dedilar. Ya‘ni inson ilm yo‘lini tutsa Olloh uni ilm va bilim yo‘llarini ochib qo‘yadi va yar bir ilmini yuqtirib qo‘yadi. Ilm va bilim olishga esa bizga har hil turdagi fanlar yo‘rdamga keladi. Misol uchun ijtimoiy pedagogika, bu fan bizga eng avvalo bola xaq xuquqlarini himoya qilishni, bolalarni har bir jamiyatga kirisha olishini bundan tashqari bolani yetuk shahs bolib komil inson bolib yetishishiga yordam beradi.

Jamiyat tarbiyasi bu ijtimoiy tarbiya deganidir. Ijtimoiy tarbiya muammolari bilan bilan esa ijtimoiy pedagogika shug‘ullanadi. Ijtimoiy pedagogika – bu pedagogik fanlarning muhim yo‘nalishlaridan biri, uning tadqiqot ob‘yekti shaxs bo‘lib, u aniq manzilga ega. Ya‘ni ijtimoiy pedagogikaning ob‘yekti jamiyatdagi barcha shaxlar emas, balki ijtimoiy xayotda adashgan, odob - axloq me‘yorlarida og‘ishgan, ijtimoiy pedagogik yo‘rdamga muxtoj shaxslar, shuningdek, jamiyat



aʼzolarining ongini tarbiyalashdan iboratdir. Ijtimoiy pedagogikaning predmeti esa bolaning ijtimoyillashuvi hamda ularga ijtimoiy taʼlim va ijtimoiy tarbiya berish qonuniytlarini oʻrganuvchi pedagogika fanini tarmogʻidir.² Shaxsning ijtimoyillashuvi esa - bu maʼlum jamiyatga xos bilimlar, qadiryatlar, meʼyorlar, xatti harakalar tizimidan iborat ijtimoiy xayotga kirisha borish jarayonidir. Bundan tashqari Ijtimoiy pedagogika birinchi navbatda bolalik muammolariga murojat qiladi. Hamda u shaxs tarbiyasi uning maʼnaviy axloqiy sifatlarini shakllanishi murakkab vaziyatlarda qoʻllab — quvvatlanishi masalalariga murojat etgan holda bolaga jamiyat hayotiga moslashishiga yordam beradi.

Ijtimoiy pedagogika faning rivojida islom taʼlimotining oʻrni va roʻli beqiyosdir. Bu taʼlimot odamlarni eng oliyanob insoniy fazilalarlar ruhida tarbiyalashga xizmat qilgan xolda ezgulik, ijtimoiy odob, oʻzaro totuvlik, birodarlik, mexribonlik kabi yuksak umumbashariy qadiryatlarni barqaror aylab, insonlarni jamiyatda oʻzlarining munosib oʻrinlariga ega boʻlishlaridek oliyanob vazifani bajarishlariga xizmat qilib kelmoqda.

Bolaning rivojlanishi murakkab jarayondir hisoblanadi va bolaning ijtimoyillashuvi – juda uzoq, murakkab jarayon hisoblanadi. Shu sababli xar bir bola maʼlum ijtimoiy ahloqiy qadryatlar tizimiga, shu jamiyat meʼyor va qoidalarga ega boʻlishi bu jamiyatda yashash uchun, teng huquqli aʼzosi boʻlishiga intiladi. Jamiyat oʻzaro qurilishiga koʻra bir neshta intetutlar bilan bogʻlangan. Bularga quyidagilar kiradi;

- Ijtimoiy instetut
- Oila instetuti
- Taʼlim instetuti
- Din instetuti

Ijtimoiy institut - insonlarni tarixan kelib chiqishi oʻrganiladi. Shular orqali bola jamiyat meʼyorlari va ahloq qoidalarini oʻzlashtiriladi.

Oila institut - bola asosiy ijtimoiy bilimlarni egallashni boshlaydi, xayotda nima



kerak bo'lsa shu jamiyat asosida o'sib ulg'ayadi.

Ta'lim – esa bola nafaqat o'sib ulg'ayadi bundan tashqari rivojlanib jamiyatga moslashib boradi.

Madaniyat institut – asosan insonlar o'zi uchun moddiy va manaviy boyliklarni tanlaydi. Bolada uning shakillanishida adabiyot, musiqa, rasm va boshqa ommaviy axborot resurslari yo'rdam beradi.

Din institut – ijtimoiy institut sifatida murakabdir. Bir butunicha alohida tasavvur, sezgi, ibodat harakatlari, tashkilotlar va sig'inuvchilarning turli hil birlashmalari mavjud. Doimiy ahloqiy qadiryatlar, ya'ni islom, xristian “ yaqinlarga sevgi va g'amxorlik chidamlilik, yaxshilik, mexr – muruvatlilik “ diniy bayram va an'analar, diniy musiqa meyorlari ta'sir etishi mumkin.

Xulosa: Yuqorida keltirilga fikrlarga ko'ra shuni ayta olamizki, din xech qachon insonlarni yomonlikka, o'g'iriliga chorlamaydi, aksincha insonlarni xayotini yaxshilashga, chiroyli yashashga, o'zlarini anglashga o'rgatadi.

Shuni aytishimiz joizki, ota-onalar farzand tarbiyasi borasida fikr yuritilar ekan avvalo tarbiyani dinga asoslagan holda berish kerak. Ya'ni eng avvalo farzandga din haqida ta'limotni berib mustaxkamlab olish kerak. Keyin esa dunyoviy bilimga o'tish kerak. Shu bilan bir qatorda agar biz farzanga diniy bilim berayo'tganimizda dinni chiroyli tushuntirib qiziqтира olmasak, farzand bu bilimlarni olishni xoxlamaydi. Shu sababli ota-onalarga va ta'lim-tarbiya beruvchilarni zimmasiga juda katta mas'uliyat yuklanadi. Bu vaqtda bizga Hadislar juda katta yo'rdam beradi. Yuqorida aytib o'tilgandek, Hadislardan ta'lim tarbiyaga e'tibor qaraladi. Ota onaga va kattalarda bo'lgan xurmat, ularni e'zozlash qadirlash, bilim olish farzligi haqida keng yo'ritilib berilgan.

Yuqoridagi ma'lumotlardan quyidagi tavsiyalar keltiriladi:

1. Bolalaga dinni o'rgatayotganda o'zimiz yaxshilab o'qib o'rganib olishimiz zarur, aks xolda bolani savollariga to'g'ri javob berolmay qolamiz.



2. Bolalaga dinni o‘rgatayotganda dinni chiroyli qilib ko‘rsatish. Ko‘pchilik dinni va hadislarni to‘g‘ri talqin etmasdan no‘tog‘ri tushuntirib qo‘yadi va natijada bola din xaqida yomon xayolga borib qoladi. Ya‘ni dinda ko‘p narsalar mumkin emas ekan. Bu esa meni erkinligimni cheklab qo‘yadi degan fikr keladi.
3. Ota – onalar bolalarga ertaklarni o‘niga hadislarni aytb berishsa maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Payg‘ambarimiz alayhissalom hadislarda nihoyatda qisqa iboralar bir olam ma‘noni bayon etganlar. Shu sababli qadimdan ota – bobolarimiz hadislarga katta e‘tibor qaratishgan.

Adabiyotlar

1. K.Turg‘unboyev, M.Tolipov, I.Oxunov ‘Ijtimoiy pedagogika asoslari’ «Fan va texnologiya» nashriyoti: Toshkent, Olmazor kO‘chasi 171-uy 49-bet
2. D.A.Axatova «Ijtimoiy pedagogika»Fani bo‘yicha o‘quv qo‘lanma. Navoiy – 2012 303-bet
3. Karimov I. A. Yuksak ma‘naviyat yengilmas kuch. T., Ma‘naviyat nashriyoti. 2008. 176 – bet.
4. Nodira Egamberdiyeva ‘Ijtimoiy pedagogika’ Alisher Navoiy nimidagi O‘zbekiston Milliy kutibxonasi nashiroti Toshkent - 2009. 220 - bet

Elektron adabiyotlar va saytlar.

- 1 .<https://sammuslim.uz/oz/articles/eductaion/farzand-tarbiyasida-hadislarning-orni>
- 2.<https://fayllar.org/ijtimoiy-pedagogika-kafedrasi-himoyaga-tavsiya-etaman-fakultet.html?page=3>
3. https://fayllar.org/pars_docs/refs/438/437673/437673.pdf
- 4.<https://cyberleninka.ru/article/n/ta-lim-tarbiya-jarayonida-hadislardan->



foydalanishning-ilmiy-amaliy-ahamiyati/viewer

5. <https://lex.uz/ru/docs/-5663785https://lex.uz/docs/-1602522?ONDATE2=22.02.2021&action=compare>

5. <https://www.sammuslim.uz/oz/articles/ilm-fazilati-bir-hadis-sharhi>

6. <https://www.bukhari.uz/?p=16959&lang=oz>

7. <https://bolcheknig.ru/uz/terminy/hadis-pro-znaniya-na-arabskom-s-perevodom-o-velichii-i-dostoinstvah/>

1 Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. T., Ma'naviyat, 2008. 25-b.

2 D.A.Axatova «Ijtimoiy pedagogika» Navoiy – 2012 43 – bet.